BO‘LAJAK MUTAXASSIS AGRONOMLARNI SHAXSIY-KASBIY RIVOJLANLANISHGA YO‘NALTIRISH, INTEGRATIV YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Alijonova M.R.
AndQxi dotsenti, p.f.b.f.d (PhD)

Tayanch so‘zlar: kasbiy kompetentlik, integrativ yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, integratsion ta’lim.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, интегративный подход, профессиональная подготовка, интегрированное образование.

Key words: professional competence, integrative approach, professional training, integrated education.

Kirish: Oliy ta’lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlashda bo‘lajak mutaxassislarning o‘zi tanlagan kasbi va mutaxassisligi bo‘yicha puxta bilim berish asosida kelgusi amaliy faoliyatida o‘z funksional vazifalarini mukammal bajarishga tayyorlash yo‘nalishlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar jarayonida oliy ma’lumotli mutaxassis shaxsiga va ularning faoliyatiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar asosida ta’limni modernizatsiya qilish, yangilash hamda ta’lim mazmunini izchil rivojlantirib borish bilan bir qatorda, bo‘lajak mutaxassislarga belgilangan malakaviy talablarni ham shaxs va jamiyat extiyojlariga muvofiq izchil takomillashtirib borish zarurati mavjud.

Mamlakatimizda ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishi va xalqaro globallashuv ta’sirida informativ, integrativ, kommunikativ yondashuvlarning yuqori darajada dinamik sur’atlar bilan o‘sishi, innovatsion, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ilmiy-metodik ta’minot tizimi yordamida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugungi kunning davr talablaridan biri bo ‘lib e’tirof etilmoqda.

Asosiy qism. Oliy ta'lim jarayonlarini zamonaviy rivojlanishlar bilan muvofiqlashtirishda va takomillashtirishda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi, ya'ni ularning professionalligi, kompetentli bo'lishi alohida e'tirof etiladi. Chunki malakali kadrlar tayyorlash jarayonlari samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi zamonaviy talablar bo'lajak mutaxassislar kasbiy kopetentliligini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion va integratsion ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Bizning tadqiqot ishimizning ilmiy- nazariy, metodologik asosi sifatida bo'lajak mutaxassis agronom kasbiy kompetentligini tizimlilik, mutaxassis mahoratni egallash, shaxsiy-kasbiy rivojlanishga yo'naltirish va integrativ yondashuvni takomillashtirish kompetentli yondashuv tanlab olingan. Shu nuqtayi nazardan, tizimlilik mazmun- mohiyatida subyekt va obyekt o'zaro bevosita bog'langan va kommunikatsiya, informatsiyani nazariy o'rganib amaliyotga tatbiq qilish jarayonida bir-birini takomillashtiruvchi transformatsiyalovchi elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim (hosila) sifatida qaraladi.

Har bir bo'lajak mutaxassis agronomda kasbiy kompetentliligini rivojlantirish va ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqqot olib borishdagi kuzatish va tahlillar bo'lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini o 'rganish, uni sintez qilish, oliy ta'lim muassasalarida integrativ yondashuvning mashg'ulot jarayonida ijobiy samara berishi, pedagogik-metodik imkoniyatlarning amaliy tatbiq qilinishi , shu faoliyat jarayonida kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va nutqiy malakalarning takomillashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, integrativ yondashuv asosida bo'lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish shaxsiy -kasbiy, kreativ sifatlarini zamon talablariga muvofiq o'stirish soha mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi.

Tadqiqot ishimiz doirasidagi o'quv- metodik, pedagogik -psixologik hamda ilmiy manba va maxsus adabiyotlar tahlili, shuningdek, oliy ta'lim muassalalari tajribasini yaqindan o'rganib chiqish natijasida quyidagilar aniqlandi: oliy ta'lim muassalalarida o'qiyotgan bo'lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishda, turli o'quv predmetlararo aloqadorlik, matematika, fizika, kimyo, mantiq, nutq madaniyati, adabiyot, psixologiya, pedagogika, falsaga, infomatika, xorijiy tillarni o'qitish kabi fanlarining integratsiyalashuvi, ularning funksional imkoniyatlarini tadqiq qilish; oliy ta'lim muassalalari talabalarining tahsil olish jarayonida kelgusida turli innovatsion metodlarni nazariy va amaliy

qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirishning psixologik shartlarini yoritish; kasbiy tayyorlikning shakl va metodlarini takomillashtirish; kasbiy ko‘nikmalarning “me’yoriy model” tuzilishi va tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Ilmiy va metodik adabiyotlarni, soha mutaxassislarining tadqiqot ishlarini o‘rganib tahlil qilish natijasida shu ma’lum bo‘ldiki, bo‘lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning umumnazariy va metodik masalalari muayyan darajada yoritib, nazariy-metodik jihatdan boyitilgan

Mazkur tadqiqot ishimizning sifat va samaradorligini oshirishda bo’lajak mutaxasis agranomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish pirovardida bu sohadagi keng ko’lamli ishlarni bajarish uchun yetuk izlanuvchan, tashabbuskor, raqobatbardosh mutaxassis bo’la oladigan yoshlarning ilmiy va kasbiy faoliyatini mukammal takomillashtirishimiz zarur. Shu bois, avvalo, ularda professional ta’lim va bu ta’lim faoliyatining to’g’ri tashkil qilinishi kasbiy ko’nikma va malakalarning egallanishi bilan mutanosiblikda yuzaga keladi.

Taniqli akademik O‘.Q.Tolipov bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni hamda ahamiyati uni ta’lim jarayoniga qo‘llashning muhim tomonlarini tadqiq qilgan.

O.A.Abduquddusov tomonidan integrativ yondashuv kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga muammosi tahliliy o‘rganilgan.

Pedagog olim professor N.A.Muslimov bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisida kasbiy-pedagogik sifatlarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq etib, mutaxassislarning yangi avlodini rivojlantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratgan.

M.B.O‘razova “Bo‘lajak kasb ta’limi pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish” mavzusida tadqiqot olib borib, pedagogika fanlarini o‘rganishda bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining pedagogik loyihalashtirishlar bilimi asosida tayyorgarligi modelini pedagogik loyihalashtirish orqali bo‘lajak kasb ta’limi pedagogining tayyorligini bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Metodist olim A.R.Xodjabayev esa o‘zining tadqiqot ishida talabalarni kasb egallashga yo‘naltirish o‘quv- pedagogoik jihatlarini uning metodik ta’minotining pedagogik asoslarini ishlab chiqqan hamda ularni amaliyotda qo‘llash yo‘llariga to‘xtalib, mazkur jarayonini ta’minlovchi qator omillar majmuasi va shart-sharoitlari aniqlangan izoh berilgan tizim sifatida

tavsiflangan. Talabada kasbiy kompetentlik rivoji bevosita o‘qitish ishlari samaradorligi bilan belgilanadi. Shu bo‘yicha A.K.Rahimov tomonidan quyidagicha yondoshiladi: “O‘qitishni rivojlantirish talabalarning har tomonlama rivojlanishi, faol yondashuvni rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallashi. Bu yerda o‘qituvchi axborot beruvchi, bilim va haqiqat yetkazuvchi emas, balki talabalar faoliyatining faolligini oshiruvchi, izlanish jarayonining tashkilotchisi hisoblanadi.

U.N.Nishonaliev ilmiy tadqiqotida kasb ta’limi pedagog shaxsining innovatsion sifatlari tadqiq etilgan. Bo‘lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogning ko’plab sifatlari qatori innavatsion sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak mutaxassis agronomlarni tayyorlash jarayonida bu jihat markaziy o’rin egallabgina qolmay balki, ularning pedagogic insoniy, shaxsiy takomillashuviga asos bo’ladi. Shu nuqtayi nazardan bo’lajak mutaxasis agranomlarga kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va uslubiy metodik talablarni egallashlari asoslidir. Shuningdek, O‘zbekistonda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi rivojlanishining ijtimoiy-pedagogik va nazariy-metodologik asoslari H.F.Rashidovning dissertatsiya ishida o’z tasdig’ini topgan. Bizningcha, bo‘lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uzliksiz ravishda olib borilishi uning asl mohiyatini tadqiq qilishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompitentlik belgilanga talablarda rivojlanib borishi uchun o’quvchi yoshlarga umumiy o’rta ta’lim va kasb-hunar ta’limida zaruriy imkoniyatlarni yaratish maqsadga muvofiq. U.I.Inoyatov kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning nazariy va tashkiliy-metodik asoslarini ilmiy asoslagan.

Boshqaruv va nazorat har bir sohada raqobat muhitini vujudga keltirib, rivojlanish, yuqori sifat va samaradorlik omili bo‘lib xizmat qiladi.

Q.T.Olimovning “Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari” tadqiqotida metodik ta’minot yaratishning pedagogic nazariy, o’quv uslubiy, amaliy asoslanishi e’tirof etilgan. Zamonaviy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi ilmiy asoslanib, o‘quv jarayoni sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgani yoritilgan. Bo’lajak mutaxasis agranomlarda kasbiy kompitentlikni rivojlantirishda o’quv-metodik ta’minot mazmuniga, integrative, innavatsion, aksiologik, kommunikativ yondashuvlarni singdirish vas hu asosda yangi o’quv adabiyotlarni turli xil shakl va ko’rinishda yaratish

bugungi ta'lim va qishloq xo'jaligidagi dolzarb muammolar yechimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bo'lajak mutaxasis agranomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion metod va ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish va undan o'quv jarayonida foydalanish ko'zlangan natijaga erishishga yordam beradi.

Binobarin, xorijiy o'qitish tizimida kompetentli yondashuvga oid mazmun mohiyatining nazariy tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rgatish zarur bo'lgan faoliyat xulq namunalarini ishonchli va valid ifodalash asosida ta'lim mazmunini ishlab chiqishni nazarda tutuvchi kasbiy-amaliy ta'lim avvaldan konstruktivizm va bixeviorizm falsafasiga asoslangan.



Xulosa. Shunday qilib bo'lajak mutaxasis agranomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda kompetentlik-pedagogik-metodik kasbiy tayyorgarlik - kasbiy kompetentlik va bo'lajak mutaxassis agranomlarda kasbiy kompetentlik kabi to'rtlikda chambarchas holda tizimli, shaxsga yo'naltirilgan mehnat faoliyatini boshqarishga qaratilgan jarayonlarni har tomonlama tadqiq etoish imkonini beradi. Qo'yilgan muammoni hal etish uchun «kompetentlik», «kasbiy kompetentlik», «Bo'lajak mutaxassis agranomlarda kasbiy kompetentlik»tushunchalari mohiyatini aniqlashga asosiy omillarga tayanish ayni muddaodir.

Adabiyotlar:

1. Tolipov U.K. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. ...ped.fan.dokt. - T.: 2004. -314 b.

2. Xodjaboev A.R. Uchebno-metodicheskiy kompleks podgotovki uchiteley trudovogo obucheniya. Metod. rekom.- T.:,UzNIIPI, 1989. - 93 s.;

3. Rahimov B.X. Bo'lajak o'qituvchida kacbiy-madaniy munocabatlarning shakllanishi: Ped. fan. nomz. ... dicc. – T.: 2004. – 160 b.

4. Nishonaliev U.N. Formirovanie lichnosti uchitelya i trudovogoobucheniya. Problemы i prospektivы - T.: Fan, 1990 – 85-s.

5. Rashidov X.F. Teoretiko-metodologicheskie i spesialno-pedagogicheskie osnovы razvitiya srednego spesialnogo, professionalnogo obrazovaniya v Uzbekistane. Diss. ... dokt. ped.nauk. - T.: 2005. - 311 s;

6. Inoyatov U.I. Teoreticheskie i organizatsionno-metodicheskie osnovы upravleniya kontrolya kachestva obrazovaniya v professionalnom kolledje. Diss. … dokt. ped. nauk. – T.: 2003. – 327 s.

7. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari: Dis. … ped. fan. dokt. – T.: 2005. – 286 b

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo‘lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini o‘rganish, uni sintez qilish, oliy ta’lim muassasalarida integrativ yondashuvning mashg‘ulot jarayonida ijobiy samara berishi, pedagogik-metodik imkoniyatlarning amaliy tatbiq qilinishi, shu faoliyat jarayonida kasbiy bilim, amaliy ko‘nikma va nutqiy malakalarning takomillashuvi, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish shaxsiy-kasbiy, kreativ sifatlar bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье исследуются теоретические основы развития профессиональной компетентности будущих специалистов-агрономов, ее синтез, положительное влияние интегративного подхода в процессе обучения в высших учебных заведениях, практическое применение педагогических и методических возможностей. Описаны профессиональные знания в процессе этой деятельности, совершенствование практических навыков и речевых навыков, развитие профессиональной компетентности у будущих специалистов-агрономов на основе интегративного подхода, личностно-профессиональных, творческих качеств.

SUMMARY

This article examines the theoretical foundations for the development of professional competence of future agronomist specialists, its synthesis, the positive impact of the integrative approach in the learning process in higher educational institutions, the practical application of pedagogical and methodological capabilities. Professional knowledge in the process of this activity, improvement of practical skills and speech skills, development of professional competence of future agronomist specialists based on an integrative approach, personal, professional, and creative qualities are described.